

TO‘LQIN HAYIT HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYATLARNING BADIY TAHLILI

Bahromova Komila

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Hamrayeva Muhayyo**

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi: PHD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20330934>

O‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlarni badiiy talqin etish muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlarini, axloqiy mezonlari va ruhiy dunyosini ifodalaydi. XXI asr o‘zbek adabiyotining sevimli yozuvchisiga aylangan To‘lqin Hayit hikoyalarida ham xuddi shu qadriyatlar zamonaviy badiiy shaklda ifodalanib, kitobxonni milliy ruhiyat bilan bog‘laydi. Ustoz To‘lqin Hayitning “Farishta emasman”, “Yarador qo‘shiq”, “Eski do‘ppi”, “Siz ham yig‘laysizmi”, “Boyvachchaning qizi”, “Toshtan”, “Masxarabozlar”, “Poklik uyi”, “Begona”, “Rais ona”, “Qodir boboning orzusi”, “Ona sochi”, “Cho‘pon daho”, “Oxlokrat”, “Xonbobo o‘lgan emish”, “Oshiq” kabi hikoyalari, shuningdek tarixiy mavzuga bag‘ishlangan “Amir Temur haqida hikoyalar”(to‘plam), “So‘nggi temuriy malika” va “Karvon qo‘g‘irog‘i” hikoyalari o‘zbekona urf-odat va milliy an‘analarimizning yorqin namunasi ifodalovchi qimmatli manbalardir.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha hikoyalarda milliy qadriyatlarimiz juda chiroyli, mazmunli va sarmahsul jumlar bilan tasvirlangan. Hikoyalarda keltirilgan badiiy detallar ham milliy qadriyatning ko‘zga ko‘rinarli namunasi hisoblanadi. Misol uchun yozuvchining birgina “Eski do‘ppi” hikoyasini oladigan bo‘lsak, asar qahramoni, ya‘ni Shavkat ismli og‘ir-bosiq bolaning, yosh bo‘lishiga qaramay o‘ziga bo‘lgan ishonchi, bolalik jasorati sinfdoshlarini hayratda qoldirdi. Shavkat otasidan erta ajralgan, bu og‘ir judolik uning beg‘ubor bolaligini tortib olgan edi. Yozuvchi o‘zbekning o‘ziga bek yigitlariga xos bo‘lgan mardlik, qa‘tiyat va dovyuraklik belgilarini Shavkat obrazi orqali gavdalandirgan. Buni kitobxon bevosita hikoyani o‘qish davomida sezadi. Masalan:

-Qurbaqani bossang, vaq, deydi! Nega vaq deyapsiz, janob Kamolov!- deya piching qildi u.

Shavkatning ikki yanog‘i qizardi:

-Bedanadek sayrama! Do‘ppimni olib ber!

Qizlar xixilab kulishdi:

-Bopladi!

-Voy, bu bechorada ham til bor ekan!

-“Tirilgan murda” tilga kirdi!

Piching va kulgilar Shavkatning qitig‘iga tegdi:

-Yaxshilikcha beringlar do‘ppimni!¹ -shu paytgacha Shavkatning birovga ovozi

ko‘tarmaganini, birov bilan gap talashganini ko‘rmagan sinfdoshlari bu voqeadan keyin hayratda qolishdi. Qahramon otasidan qolgan eski do‘ppi uchun o‘zidagi bor kuchni ishga soldi va oxirigacha kurashdi. Chunki bu do‘ppi unga otasini eslatib turadigan yagona yodgorlik edi. Do‘ppi badiiy adabiyotimizda milliylikimizni aks ettiruvchi detal hisoblanadi. Hikoyada esa do‘ppi bir

¹To‘lqin Hayit “Boyvachchaning qizi”26-bet-Toshkent; “O‘zbekiston”-2008

vaqtning o'zida ham predmet, ham ramz, ham psixologik holatni ifodalab kelgan. Kontekstda do'ppi bir qaraganda detal sifatida muhim nuqtalarda ko'zga tashlansada, aslida, esa qahramonning ichki kechinmalari, xotirasi yoki or-nomus hissi bilan bog'liq bo'lib, ma'noni kengaytirib keladi. Yana bir o'rinda esa do'ppi ota-bola o'rtasidagi munosabatda muhim rishta vazifasini ham bajargan.

Hikoyada "eski" tushunchasi ham kitobxonning e'tiborini tortadi, bu yerda gap shunchaki eski bir buyum haqida emas, balki o'sha eski narsaning qahramon ruhiyatiga qanchalik ta'sir qilishi va buyumning unga juda qadrlı ekanini ko'rsatib beradi. Xalq og'zaki ijodida esa bu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi: "Bir buyumning "eski"ligi shunchaki eskirish emas, balki avlodlar orasidagi uzviylik, uyat va or-nomusning ko'chishi ramziga aylanadi; shu ramz qahramon xatti-harakatini boshqaruvchi ichki qoidaga xizmat qiladi. Statistik ko'rsatkich sifatida, folklor va adabiy semantika bo'yicha tadqiqotlarda milliy identifikator vazifasini bajaruvchi predmet-detallar badiiy prozada emotsional intensivlikni oshirishga 20–30 foizgacha hissa qo'shishi qayd etiladi, chunki ular o'quvchi tajribasidagi tanish kodlarni tez faollashtiradi."²

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ustoz To'lqin Hayit hikoyalari nafaqat badiiy asar, balki milliy qadriyatimizni ko'rsatib beruvchi boy manba sifatida o'zbek adabiyoti nasrida alohida o'ringa egadir. "Eski do'ppi" hikoyasida yozuvchi milliy o'zligimizni va qadriyatlarimizni faqatgina ramz va detallar orqali emas, qahramonning ruhiy holati va ichki kechinmalari orqali yoritib bergan. Qolaversa, bugungi kunda ham yoshlarimiz o'rtasida milliylikimiz, urf-odatlarimiz va o'zligimizni anglash, ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosni asrab-avaylashni o'rgatish uchun ustozning asarlari tamal toshi vazifasini bajaradi desak adashmagan bo'lamiz.

² Xalq og'zaki ijodi poetikasi: maqolalar to'plami. 208-bet-Toshkent; "Fan"-2015.